

G`AFUR G`ULOMNING “YODGOR” ASARIDA SHAXS QADRIYATI

Eshboyev Sharafiddin Alisher o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-kurs talabasi

Email: eshboyevsharafiddin01@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada “Yodgor” asaridagi shaxs qadriyati va o`zbekchilikda ornomus ahamiyati tasvirlangan. Shuningdek, Mehri obrazi salbiy obraz emas, balki chorasizlikda qolgan ayol sifatida tasvirlanganligi ko`rsatib o`tilgan.

Kalit so`zlar: inson, xolis xizmat, tarbiya, ona, qayg`u, farzand

Annotation: The article describes personal value and the importance of honor in Uzbekism in the work "Yodgor", it is shown that the character of Mehri is not a weak character, but a helpless woman.

Key words: human, unbiased service, education, mother, grief, child

Аннотация: В статье раскрывается личностная ценность и значение чести в узбекизме в произведении «Ёдгор», показано, что персонаж Мехри – не слабый персонаж, а беспомощная женщина.

Ключевые слова: человек, непредвзятое служение, образование, мать, горе, ребенок.

G`afur G`ulom o`zbek adabiyoti rivojiga o`zining asarlari bilan juda katta hissa qo`shgan. G`afur G`ulom asarlarida shaxs qadriyati, milliy ruh va erkinlik ufurib turgan. Uning har bir asari o`ziga xos va boshqa asarlariga o`xshamaydi. Birgina uning “Yodgor” asarini misol qilib oladigan bo`lsak, ushbu asar bir qarashda oddiy asardek ko`rinadi va uni birinchi marta o`qigan inson uni shunchaki onaning o`z bolasini tashlab ketishi deb o`ylashi mumkin. Lekin asarni chuqurroq fikrlab o`qisa ushbu asarda bir butun shaxs shakllanishi keltirilgan. Bundan tashqari ushbu asarda o`zbek xalqi uchun nomus masalasi juda muhim ahamiyatga ega ekanligi tasvirlangan va ushbu asarda bosh masala sifatida gumanizm tasvirlangan. Yodgor bu shunchaki ramziy nom xolos. Uning hayoti va xatti-harakatini ko`rsatish yozuvchining bosh maqsadi ham emas. Asarda insoniy munosabatlar va qahramonlar ma`naviy-ruhiy olamini ko`rsatishda, xarakterlar rivojini ta`minlashda mazkur vosita muhim rol o`ynaydi.

Asarning yozilish tarixiga keladigan bo`lsak, ushbu asar 1935-yilda yozilgan va ilk bor 1936-yilda chop etilgan. Asar chop etilgandan keyin ko`pchilikning qalbidan chuqur joy egallagan. Asar bir qancha tillarga tarjima qilingan va kitobxonlar tomonidan haligacha sevib mutolaa qilinadi. Asardagi obrazlarga keladigan bo`lsak, unda Jo`ra, Saodat, Mehri va uning otasi va boshqa obrazlar keltirilgan. Asar boshida

Jo`raning ko`cha bo`ylab ketayotganligi tasvirlangan va u to`satdan Mehrini uchratib qoladi. Mehri esa unga: “Birovga hech xolis xizmat qilib o`rganganmisiz?” deb savol beradi va uni o`z go`zalligi bilan avrab, yordam berishga ko`ndiradi. Ushbu vaziyatda Jo`ra ham qizga yordam berishni rad qilishni yigitlik nomiga or deb biladi va noiloj yordam berishga rozi bo`ladi. Ushbu vaqtdan boshlab qizg`in voqealar sodir bo`lishni boshlaydi.

Bir ko`rishda Mehrini hamma yomon ona timsolida, salbiy obraz deb bilishi mumkin. Lekin u ham o`z otasi istagi yo`lida ojiz va nochor bo`lib, chorasiz qolib ketadi. U o`z sevgan yigiti va samimiy muhabbatining totli damlaridan nishona bo`lgan Yodgorni qovushmoqlikka bo`lgan katta g`ov deb bilib, noilojlikdan o`ylab topgan yolg`oni sabab umr bo`yi vijdon azobida yashaydi va oxirida tashlab ketilgan farzandining taqdiridan bexabar bo`lgani holda xavotirga tushib kasalmand bo`lib qoladi. Mehrining onasi qizining sevgan yigiti bilan munosabatlarini yoqlasa-da, biroq eriga qarshi bora olmaydi. Jo`raning onasi ham nomus kishisi bo`lib, o`g`lini «etti nomusimni yerga bukding», - deb nolishi shundan. Lekin shunga qaramasdan bir-ikki kun o`tgandan keyin uning ham o`z “nevarasiga” mehri oshadi va o`z o`g`lining farzandi sifatida unga g`amxo`rlik qila boshlaydi. Onalik mehri hamma narsadan ustun turadi, hatto, ushbu “nevara” sining onasi kimligini bilmasa ham, qo`ni-qo`shnilar u haqida yomon gap gapirishiga qaramay uni parvarishlaydi. Kampirning «tinkasini quritgan» Jo`raning bolajonligi sal o`tmay begunoh go`dakka nisbatan butun oilada mehr-shafqat uyg`otadi. Kampir Yodgorni o`z farzandlari qatori sevib, ardoqlab tarbiyalaydi, unda o`g`liga o`xshash ko`p jihatlarni kashf qiladi. Shu bolada o`g`lini ko`rganday, hidini dumog`ida his etganday bo`ladi.

Saodatning onasi esa Jo`raning “farzandi” borligini eshitganidan keyin, uni «beboshvoq»qa chiqaradi va unga o`zining gulday qizini berishdan bosh tortadi va o`z qizini “hali bittayam guli ochilmagan” deb tasvirlaydi. Saodat ham uzoq vaqt o`tmasdan bolaga alohida mehr bilan qaray boshlaydi va bu uning Yodgorga bo`lgan samimiy muhabbati, mehribonchiligi o`zbekona bolajonlilikning, insonparvarlikning yorqin belgisidir. Ayni paytda bunday insoniy tuyg`ular yosh qalblar intilishlarini tushunmagan johil otaga nisbatan achinish va g`azab tuyg`usini ham kuchaytiradi. Yosh go`dakning sarson bo`lishida asarning oxirigacha Mehrining xattiharakatlarini, intilishlarini ayblagan kitobxon qissaning so`ngiga kelib unga bo`lgan munosabatlarini o`zgartiradi. Jo`raga qo`shilib kitobxonning qalbida ham mehr-shafqat, kechirimlilik tuyg`ulari paydo bo`la boshlaydi. Qissada Jo`ra kechinmalari orqali o`z ichki tuygularini ifoda etgan G`afur G`ulom lirik chekinish qilib, o`z onasiga bo`lgan mehrini quyidagicha ifodalaydi: “Ey, meni bag`ring bilan parvarish qilgan ona, ey, menga borlig`ingni bergan ona, ey, mening tarbiyam uchun ko`z yummasdan hulkarlar ko`zlaringga cho`kkan ona. Ey, qora kechalarning zulmati baxtiga cho`kkan ona, ey, yorug` kunlarning saodati kelajagingga qo`ngan ona! Dunyoda onadan ortiq kim

mehribon? Haligacha beshik tepasida kuylagan allalaringga baravar she'r yoza olmadim. Haligacha mendan chiqqan kichik isitma uchun tortgan qayg'ularingga teng qayg'u his qila olmadim". Mehri bu bevafo ona obrazi emas, balki u nomusni o'ylaydigan, xatolari uchun iztirob chekadigan, o'z-o'zini kechira olmay ruhan qiynaladigan, yurak «sir»larini eridan ham pinhon tutib, uni ayaydigan, shafqat va marhamatga loyiq ayol obrazidir. Farzandini bag'rida parvarish qila olmagan, unga butun borlig'ini baxshida etib, tunlari bedor allalar ayta olmagan ekan, bu uchun uning baxtiga zomin bo'lgan ota tabiatidagi ma'rifatsizlikni, jaholatni ayblash o`rinli bo`ladi.

Asar oxirida taqdir taqazosi bilan Jo`ra bilan Mehri uchrashib qoladi va o`sha paytda Jo`ra Mehriга “Birovga hech xolis xizmat qilib o`rganganmisiz” deya savol beradi. Xuddi ushbu so`zlarni asar boshida Mehri Jo`raga aytgan va uning yigitlik nomidan foydalangan holda o`z farzandini noilojlikdan tashlab ketgan edi. Ushbu so`zlar xuddi “Yodgor” asarining kalit so`zlariga o`xshaydi. Bu asar juda teran fikr yuritishga undaydigan asarlardan biridir. Yuqorida aytib o`tganimizdek, o`z farzandini yeti yot begona insonga tashlab ketishni hech qachon oqlab bo`lmaydi, lekin chorasizlik va qiyin vaziyat Mehrini ushbu ishni qilishga majbur qiladi. Shuning uchun ham G`afur G`ulom Mehri obrazini bevafo ona emas, balki o`z xatosini bir umr o`ylab iztirob chekadigan ona sifatida tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G`afur G`ulomning badiiy mahorati, Toshkent – TDYU, 2021,
2. G`.G`ulom. Tanlangan asarlar. –T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1983.
3. G`afur G`ulom. “Yodgor” asari – G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. .Normatov U. G`afur G`ulom poeziyasining estetik prinsiplari. “O`zbek adabiyoti masalalari”– Toshkent: “O`zadabiynashr”,1959.